

## ILK MUSTAMLAKACHILIK DAVRIDA IJTIMOY O'ZGARISHLAR VA KOMIL XORAZMIY QARASHLARINING AHAMIYATI

*Vasijonova Surayyoxon Muqumjon qizi*

*Farg'ona davlat universiteti filologiya*

*fakulteti 3-bosqich talabasi.*

**Annotasiya:** Ushbu maqolada ilk mustamlakachilik davrida O'rta Osiyoda yuz bergan ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar hamda milliy uyg'onish adabiyotining shakllanish jarayoni yoritiladi. Shuningdek, Komil Xorazmiy ijodi va uning ma'rifatparvarlik g'oyalari tahlil qilinadi. Maqolada shoirning yangi tafakkur shakllanishidagi o'rni, uning asarlaridagi g'oyaviy yangiliklar va adabiy merosning ahamiyati ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** ilk mustamlakachilik davri, milliy uyg'onish adabiyoti, ma'rifatparvarlik, Komil Xorazmiy, ijtimoiy o'zgarishlar, adabiy meros, yangi tafakkur, o'zbek adabiyoti.

Ilk mustamlakachilik davri O'rta Osiyo tarixida tub burilishlar davri bo'lib, bu davrda ijtimoiy hayot, boshqaruv tizimi va madaniy-ma'naviy muhit sezilarli darajada o'zgardi. Rossiya imperiyasining mintaqaga kirib kelishi natijasida an'anaviy xonlik tuzilmalari zaiflashdi, yangi ma'muriy tartiblar joriy etildi. Bu jarayon jamiyatning ichki tuzilishiga ham, xalqning kundalik hayotiga ham bevosita ta'sir ko'rsatdi. Ijtimoiy hayotda eng muhim o'zgarishlardan biri — boshqaruv tizimining markazlashuvi va yangi iqtisodiy munosabatlarning shakllanishi edi. Ilgari an'anaviy feodal munosabatlar ustun bo'lgan bo'lsa, endilikda savdo-iqtisodiy aloqalar kengaya boshladi. Shaharlar rivojlanib, yangi madaniy muhit shakllana boshladi. Shu bilan birga, jamiyatda ijtimoiy tengsizlik va ma'naviy inqiroz elementlari ham kuchaydi. Ana shunday murakkab sharoitda xalq ongida o'zgarishlarga ehtiyoj sezila boshladi. Madaniy hayotda ham sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. An'anaviy adabiyot bilan bir qatorda yangicha qarashlar, ya'ni jamiyatni uyg'otishga qaratilgan ma'rifatparvarlik g'oyalari paydo bo'ldi. Adabiyot asta-sekin hayot haqiqatini aks ettiruvchi, insonni fikrlashga undovchi vositaga aylana boshladi. Bu jarayon keyinchalik jadidchilik harakati uchun g'oyaviy asos bo'lib xizmat qildi. Milliy uyg'onish (jadid) adabiyoti XIX asr oxirlarida shakllangan ijtimoiy-ma'rifiy harakat g'oyalarining adabiy-badiiy ifodasi sifatida maydonga keldi. U dastlab jadidchilik g'oyalarini targ'ib etuvchi vosita bo'lib ko'ringan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan mustaqil adabiy hodisa darajasiga ko'tarildi va yangi o'zbek adabiyotining shakllanishiga zamin yaratdi. Uning taraqqiyot bosqichi esa XX asr boshlarida, ayniqsa 1915–1925 yillar oralig'ida yanada kuchaydi. Shu asosda milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotini ikki bosqichga ajratish

mumkin:birinchisi — XIX asr oxirlarida yuzaga kelgan ilk bosqich bo‘lib, unda yangi g‘oyaviy manbalar shakllandi; ikkinchisi esa XX asr birinchi choragiga to‘g‘ri kelib, bu davr milliy va ijtimoiy kurashlar, adabiyotning yuksalishi va yangi yo‘nalishlarning rivojlanishi bilan xarakterlanadi. Mazkur davr adabiyotining ko‘lami va geografik hududini aniq tasavvur qilish, ijodkorlarni yetishtirib bergan adabiy-madaniy muhit bilan tanishtirish zaruriyatidan kelib chiqib, adabiy-madaniy markazlar faoliyatini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon orqali milliy uyg‘onish davri adabiyotining shakllanish omillari va uning ijtimoiy-madaniy asoslari yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. Milliy uyg‘onish davri adabiyotini o‘rganish mustaqillik sharofati bilan yangi bosqichga ko‘tarildi. Natijada mazkur adabiyotda milliy istiqloq g‘oyasining shakllanishi, uning bosqichma-bosqich rivojlanishi va jamiyat ongiga ta‘siri masalalari adabiyotshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Komil Xorazmiy — serqirra ijodkor sifatida nafaqat shoir, balki mohir xattot, bastakor, musiqashunos, tarjimon hamda davlat arbobi sifatida ham faoliyat yuritgan. Uning ko‘p qirrali ijodi va amaliy faoliyati zamondoshlari tomonidan yuksak baholangan bo‘lib, keyingi davr ilm-fan vakillari e‘tiborini ham o‘ziga jalb etgan. Uning ijodiy va siyosiy faoliyati turli tadqiqotchilar tomonidan qiziqish bilan o‘rganilgan bo‘lib, Komil Xorazmiyning jamiyatdagi o‘rni va ma‘naviy merosi bugungi kunda ham ilmiy izlanishlar markazida turibdi.

yilda Xiva xonligining Rossiya imperiyasi tomonidan vasallik maqomiga keltirilishi bilan bog‘liq voqealardan so‘ng, Komil Xorazmiy faoliyati haqida rus olimlari asarlarida ham ma‘lumotlar uchray boshlaydi. Xususan, Sankt-Peterburgda chop etilgan “1873 yilgi Xiva yurishi” nomli rasmiy manbalarda hamda F. I. Lobosevichning “1873 yilgi Xiva yurishining bayoni” asarida u haqida ayrim qaydlar berilgan. Shuningdek, ingliz tilidan tarjima qilinib 1875 yilda Moskvada nashr etilgan E. Mak-Gaha asari — “Oksusdagi harbiy harakatlar va Xivaning taslim bo‘lishi” kitobida ham Komil faoliyatiga alohida e‘tibor qaratilgan. Unda muallif Xiva jamiyatidagi ayrim madaniy va ijtimoiy jarayonlar bilan bir qatorda Komil shaxsiga ham to‘xtalib o‘tadi. XIX asrning 80–90-yillarida “Turkiston viloyatining gazetasi” muharriri N. Ostroumov tomonidan yozilgan qaydlarda ham Komil Xorazmiy faoliyati haqida muhim ma‘lumotlar berilgan bo‘lib, ularning ayrim jihatlari o‘sha davr ijtimoiy-madaniy muhitini tushunishda muhim manba hisoblanadi. XX asr boshlarida, ya‘ni sovet tuzumining dastlabki yillarida, o‘zbek madaniy merosiga nisbatan murakkab va ziddiyatli qarashlar hukmron bo‘lganiga qaramay, Moskvada chop etilgan ayrim tadqiqotlarda ham Komil Xorazmiyning, xususan, musiqa va san‘at sohasidagi faoliyati haqida qiziqarli ilmiy mulohazalar bildirilgan.

Komil Xorazmiyning yangi ma‘rifatparvarlik yo‘nalishidagi bir qator asarlari yaratilgan bo‘lib, ular 1891 yildan boshlab o‘sha davr matbuotida e‘lon qilina boshlagan. Bu asarlar shoir ijodida yangi bosqichni boshlab bergani bilan alohida

ahamiyat kasb etadi. Jumladan, uning “Ikki shoh” radifli g‘azali mazkur yo‘nalishdagi eng muhim asarlaridan biri hisoblanadi. Ushbu g‘azal mavzu, g‘oya, yangicha badiiy ruh hamda ijodiy mahorat jihatidan shoirning avvalgi asarlaridan sezilarli darajada farq qiladi va unda ma’rifatparvarlik qarashlari yanada yorqin ifodasini topgan. Komil Xorazmiy lirikasida muhabbat mavzusi alohida o‘rin egallaydi. U bu mavzuda g‘azal, murabba’, muxammas, mustazod, masnaviy, musabba’ kabi turli she’riy janrlarda ko‘plab asarlar yaratgan. Bu esa shoir ijodining janr jihatdan ham serqirra ekanini ko‘rsatadi.

Shoirning “Turkiston viloyatining gazetisi”da 1891-yil 6-sentabrda e’lon qilingan dastlabki uch she’ri ham aynan muhabbat mavzusiga bag‘ishlangan bo‘lib, bu holat uning ijodiy yo‘nalishini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

Sharq mumtoz she’riyatining boy an’analari ruhida shakllangan Komil Xorazmiy muhabbat lirikasida bir tomondan Navoiy, Fuzuliy, Munis va Ogahiy kabi buyuk shoirlar yaratgan badiiy timsollardan mahorat bilan foydalansa, ikkinchi tomondan o‘ziga xos individual ijodiy uslubni ham namoyon etadi. Uning asarlarida yangi badiiy ifodalar, original timsollar va nozik poetik kashfiyotlar yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Xulosa qilib aytganda, ilk mustamlakachilik davri O‘rta Osiyoda ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlarni kuchaytirib, milliy uyg‘onish adabiyotining shakllanishiga zamin yaratdi. Bu jarayonda ma’rifatparvarlik g‘oyalari adabiyotda muhim o‘rin egalladi. Komil Xorazmiy esa ana shu davrning yetuk vakillaridan biri bo‘lib, o‘z ijodi bilan yangi tafakkur, ma’rifat va jamiyatni uyg‘otish g‘oyalarini ilgari surdi. Uning merosi milliy uyg‘onish adabiyotining rivojida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Қосимов, Бегали; Юсупов, Шариф; Долимов, Улуғбек; Ризаев, Шухрат; Аҳмедов, Суннат. “Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти”. – Тошкент: Ма’naviyat, 2004.

2. Жўраев, Н. XIX аср охири – XX аср боши ўзбек адабиёти. – Тошкент: Фан, 2005.

3. Қодиров, С. Жадидчилик ҳаракати ва миллий уйғониш. – Тошкент: Ма’naviyat, 2010.